3 - misol. $x^3+3x^2-1=0$ tenglamaning butun ildizlarini toping.

Yechish. Butun ildizlarni -1; 1 sonlar orasidan izlaymiz. Bu sonlarning ikkalasi ham tenglamaning ildizi emasligini ko'rish qiyin emas.

Javob: tenglama butun ildizga ega emas.

4 - misol. $2x^4-x^3+2x^2+3x-2=0$ $(x\in R)$ tenglamani yeching.

Yechish. Oldingi misollardan farqli o'laroq, bu yerda tenglamaning barcha haqiqiy ildizlarini topish talab qilinayapti.

Dastlab ratsional ildizlarini izlaymiz. Ratsional ildizlar esa $-2; -1; -\frac{1}{2}; \frac{1}{2}; 1; 2$ sonlar orasida bo'ladi (agar ular

mavjud bo'lsa). Ratsional ildizlar quyidagi sonlar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin: -1 va $\frac{1}{2}$.

Shuning uchun tenglamaning chap tomonidagi ko'phad $(x+1)(x-\frac{1}{2}) = x^2+\frac{1}{2}x-\frac{1}{2}$ ga qoldiqsiz bo'linadi. Bo'lishni bajarib,

$$2x^4 - x^3 + 2x^2 + 3x - 2 = \left(x^2 + \frac{1}{2}x - \frac{1}{2}\right) \cdot (2x^2 - 2x + 4)$$

ni hosil qilamiz.

Tenglamani quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$\left(x^2 + \frac{1}{2}x - \frac{1}{2}\right) \cdot (2x^2 - 2x + 4) = 0.$$

$2x^2 - 2x + 4 = 0$ tenglama yangi haqiqiy ildizlarni bermaydi.

Javob: $x_1=-1$; $x_2=\frac{1}{2}$.

8.1. Tenglamaning ratsional ildizlarini toping:

a) $3x^3-4x^2+5x-18=0$;
b) $x^3-4x^2-27x+90=0$;
d) $x^4-x^3+x+2=0$;
e) $2x^3-5x^2+8x-3=0$;
f) $4x^4+8x^3-3x^2-7x+3=0$;
g) $x^4+x^3+x^2+3x+2=0$;
h) $x^4-4x^3-13x^2+28x+12=0$;
i) $3x^4+4x^2+5x-12=0$.

8.2. Tenglamaning butun ildizlarini toping:

a) $x^4+2x^3+4x^2+3x-10=0$;
b) $x^3+7x^2+14x+8=0$;
d) $x^4-x^3+2x^2-x+1=0$;
e) $x^4+x^2+x+2=0$.

8.3. Tenglamani yeching ($x\in R$):

a) $3x^3-5x^2+3x+5=0$;
b) $4x^5+8x^4+5x^3+10x^2-3x-6=0$;
d) $3x^5-6x^4+4x^3-8x^2-3x+6=0$;
e) $2x^5+4x^4-5x^3-10x^2-7x-14=0$;
f) $3x^5-6x^4-8x^3+16x^2-16x+32=0$;
g) $2x^5+6x^4-7x^3-21x^2-4x-12=0$.

8.4. Tenglamaning barcha haqiqiy ildizlarini toping:

a) $2x^4+3x^3-8x^2-9x+6=0$;
b) $2x^4-5x^3-x^2+5x+2=0$;
d) $5x^4-3x^3-4x^2-3x+5=0$;
e) $4x^4-3x^3-8x^2+3x+4=0$;
f) $3x^4-4x^3-7x^2+4x+4=0$;
g) $2x^4-7x^3-5x^2+7x+3=0$.

8.5. Tenglamani yeching ($x\in R$):

a) $8x^4+6x^3-13x^2-x+3=0$;
b) $x^3+6x+4x^2+3=0$;
d) $2x^4-x^3-9x^2+13x-5=0$;
e)* $(x-1)^3+(2x+3)^3=27x^3+8$;
f) $x^3-(2a+1)x^2+(a^2+a)x-(a^2-a)=0$;
g) $x^4-4x^3-19x^2+106x-120=0$.

8.6. $(x+a)(x+b)(x+c)(x+d)=m$ (bu yerda $a+b=c+d$) ko'rinishdagi tenglamani yeching:

a) $(x+1)(x-2)(x+3)(x-4)=144$;
b) $(x-1)(x+2)(x-3)(x-6)=6$;
d) $(x-3)(x+2)(x-6)(x-1)=-56$;
e) $(x+2)(x-3)(x-4)(x+3)=9$;
f) $(x+3)(x-2)(x-6)(x+7)=-180$;
g) $(x+6)(x+2)(x-7)(x-3)=-180$.

8.7. Qaytma tenglamani yeching:

a) $x^4-3x^3+4x^2-3x+1=0$;
b) $x^4-3x^3+x^2+3x+1=0$;
d) $x^4-4x^3+x^2-4x+1=0$;
e) $2x^4-4x^3+2x^2-4x+2=0$;
f) $x^4+2x^3-x^2+2x+1=0$;
g) $x^4+2x^3+x^2-2x+1=0$.

8.8. Qaytma tenglamaning barcha haqiqiy ildizlarini toping:

a) $x^4+5x^3+2x^2+5x+1=0$;
b) $4x^4+2x^3+3x^2+x+1=0$;
d) $2x^4+3x^3-13x^2-6x+8=0$;
e) $3x^4-2x^3+x^2-6x+27=0$.

8.9. Tenglamani yeching:

a) $8x^3+36x^2+54x=98$.

Y e c h i s h. $8x^3+36x^2+54x=(2x+3)^3-27$ bo'lgani uchun, berilgan tenglama $(2x+3)^3-27=98$ tenglmaga teng kuchli. Bundan: $(2x+3)^3=125$; $2x+5=5$. Bundan $x=1$ ekanini topamiz.

J a v o b: 1.

b) $8x^3-36x^2+54x=28$;
d) $16x^4+32x^3+12x^2+8x-80=0$;
e) $x^4-8x^3+24x^2-8x=65$;
f) $(x^2+27)^2-5(x^2+27)(x^2+3)+6(x^2+3)^2=0$.
g) $(x^2-1)^2+5(x^4-1)-6(x^2+1)^2=0$;
h) $(x^2-3)^2-7(x^4-9)+6(x^2+3)^2=0$.
i) $(x-2)^2+(x-2)(x+1)+(x+1)^2=0$.

Namuna sifatida f) tenglamani yechib ko'rsatamiz.

E c h i s h. Bu tenglamaning hadlarini $(x^2+3)^2$ ga bo'lsak, u ushbu ko'rinishni oladi: $\frac{(x^2+27)^2}{(x^2+3)^2} - 5 \cdot \frac{x^2+27}{x^2+3} + 6 = 0$, $y=\frac{x^2+27}{x^2+3}$ deb belgilasak, $y^2-5y+6=0$ tenglama hosil bo'ladi.

Bundan $y_1=2$, $y_2=3$ larga egamiz.

$\frac{x^2+27}{x^2+3} = 2$, $\frac{x^2+27}{x^2+3} = 3$ tenglamalar mos ravishda $\pm\sqrt{21}$ va ± 3 ildizlarga ega.

8.10. $f[f(x)]=x$ ko'rinishidagi tenglamani yeching:

a) $(x^2-4x+6)^2-4(x^2-4x+6)+6=x$ (*).

Y e c h i s h. $x^2-4x+6=x$ tenglamani yechamiz:

$x^2-5x+6=0$; $x_1=2$, $x_2=3$;

$(x^2-4x+6)^2-4(x^2-4x+6)-x=0$ ko'phad $(x-2)(x-3)$ ga qoldiqsiz bo'linadi. Bo'lishni bajarib, x^2-3x+3 bo'linmani topamiz. (*) ni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin: $(x^2-3x+3)(x-2)(x-3)=0$

Bu tenglama $x=2$, $x=3$ lardan boshqa haqiqiy ildizlarga ega emas. (*) tenglamaning hamma ildizlari: 2; 3.

b) $(x^2+2x-5)^2+2(x^2+2x-5)-5=x$;

v) $(x^2-x-3)^2-(x^2-x-3)-3=x$;

d) $(x^2-8x+18)^2-8(x^2-8x+18)+18=x$;

e) $(x^2-9x+16)^2-9(x^2-9x+16)+16=x$;

f) $(x^2-3x+3)^2-3(x^2-3x+3)+3=x$.

9-§. DETERMINANTLAR

1 - m i s o l. Tenglamani yeching: $\begin{vmatrix} x & 3 \\ 1 & x^2 \end{vmatrix} = 5$.

Y e c h i s h. $\begin{vmatrix} x & 3 \\ 1 & x^2 \end{vmatrix} = x \cdot x^2 - 1 \cdot 3 = x^3 - 3$ bo'lgani uchun tenglama $x^3-3=5$ yoki $x^3=8$ ko'rinishini oladi.

J a v o b: $x=2$.

2 - m i s o l. $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 4 & 5 & 6 \\ 7 & 8 & 9 \end{vmatrix}$ ni hisoblang.

Y e c h i s h. I usul:

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 4 & 5 & 6 \\ 7 & 8 & 9 \end{vmatrix} = 1\cdot5\cdot9+2\cdot6\cdot7+4\cdot8\cdot3-7\cdot5\cdot3-4\cdot2\cdot9-8\cdot6\cdot1=$$
$$=45+84+96-105-72-48=0.$$

II usul:

$$\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 4 & 5 & 6 \\ 7 & 8 & 9 \end{vmatrix} = (-1)^{1+1}\cdot1\cdot\begin{vmatrix} 5 & 6 \\ 8 & 9 \end{vmatrix} + (-1)^{1+2}\cdot2\cdot\begin{vmatrix} 4 & 6 \\ 7 & 9 \end{vmatrix} + (-1)^{1+3}\cdot3\cdot\begin{vmatrix} 4 & 5 \\ 7 & 8 \end{vmatrix} =$$
$$=1\cdot(45-48)-2(36-42)+3(32-35)=-3+12-9=0.$$

9.1. Determinantlarni hisoblang:

a) $\begin{vmatrix} -3 & 0 \\ 7 & 5 \end{vmatrix}$; d) $\begin{vmatrix} -5 & -7 \\ 13 & -6 \end{vmatrix}$; f) $\begin{vmatrix} 0 & 0 \\ 1 & -6 \end{vmatrix}$; h) $\begin{vmatrix} 1-a & -a \\ a & 1+a \end{vmatrix}$;

b) $\begin{vmatrix} 2 & -1 \\ 3 & 0 \end{vmatrix}$; e) $\begin{vmatrix} 1 & -\frac{3}{2} \\ -2 & 3 \end{vmatrix}$; g) $\begin{vmatrix} 1 & 0 \\ -3 & 0 \end{vmatrix}$; i) $\begin{vmatrix} x & 1 \\ x^2 & x^3 \end{vmatrix}$.

9.2. a ning qanday qiymatlarida determinantning satrlari proporsional bo'ladi:

a) $\begin{vmatrix} 1 & 3 \\ 2 & a \end{vmatrix}$; b) $\begin{vmatrix} a & -4 \\ 1 & 2 \end{vmatrix}$; d) $\begin{vmatrix} 7 & 5 \\ a & 3a \end{vmatrix}$; e) $\begin{vmatrix} 0 & 0 \\ 6 & a \end{vmatrix}$?

9.3. Tenglamani yeching:

a) $\begin{vmatrix} a & 2 \\ 2 & a \end{vmatrix}=0$; b) $\begin{vmatrix} a-1 & 3 \\ a^2 & 3a \end{vmatrix}=0$; d) $\begin{vmatrix} a & a-1 \\ a+2 & a \end{vmatrix}=0$.

9.4. Determinantlarni hisoblang:

a) $\begin{vmatrix} 2 & 3 & 4 \\ 5 & -2 & 1 \\ 1 & 2 & 3 \end{vmatrix}$; d) $\begin{vmatrix} a & 1 & a \\ -1 & a & 1 \\ a & -1 & a \end{vmatrix}$; f) $\begin{vmatrix} a & 1 & a \\ 0 & -a & -1 \\ a & 1 & -a \end{vmatrix}$;

b) $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 5 \\ 3 & -4 & 7 \\ -3 & 12 & -15 \end{vmatrix}$; e) $\begin{vmatrix} 1 & b & 1 \\ 0 & b & 0 \\ b & 0 & b \end{vmatrix}$; g) $\begin{vmatrix} a & -a & a \\ a & a & -a \\ a & -a & -a \end{vmatrix}$.

9.5. Tenglamani yeching:

a) $\begin{vmatrix} x & 1 & 0 \\ 2 & 2 & 3 \\ 1 & 2 & x \end{vmatrix} = 0$; d) $\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 1 & 2 & x \\ 1 & 2 & 4 \end{vmatrix}=0$;

b) $\begin{vmatrix} x^2 & 1 & 0 \\ 1 & 1 & 1 \\ 1 & 2 & 3 \end{vmatrix}=0$; e) $\begin{vmatrix} 1 & 3 & 5 \\ 2 & 6 & 10 \\ x^4 & x & x \end{vmatrix}=0$.

9.6. Hisoblang:

a) $2\cdot\begin{vmatrix} 1 & 3 \\ 2 & 5 \end{vmatrix} - 2\begin{vmatrix} x & 2 \\ 1 & -1 \end{vmatrix}$, bunda $x=3,1(73)$;

b) $2,(7)\cdot\begin{vmatrix} x & 0 \\ 2 & 0 \end{vmatrix} + 3,(13)$, bunda $x=2,(71)$.

9.7. Determinantlarni hisoblang:

a) $\begin{vmatrix} 5 & 20 & 15 \\ 2 & 4 & 8 \\ 1 & 4 & 7 \end{vmatrix}$; b) $\begin{vmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 6 & 2 & 0 \\ 5 & 4 & 3 \end{vmatrix}$; d) $\begin{vmatrix} 7 & 3 & 2 \\ 3 & 1 & 2 \\ 10 & 12 & 8 \end{vmatrix}$;

e) $\begin{vmatrix} 1 & 3 & 2 \\ 2 & 1 & 2 \\ 4 & 12 & 8 \end{vmatrix}$; f) $\begin{vmatrix} 7 & 1 & 2 \\ 3 & 2 & 2 \\ 10 & 4 & 8 \end{vmatrix}$; g) $\begin{vmatrix} 7 & 3 & 1 \\ 3 & 1 & 2 \\ 10 & 12 & 4 \end{vmatrix}$.

9.8. Tenglamani yeching:

a) $2\cdot\begin{vmatrix} x & 1 \\ 2 & 3 \end{vmatrix} + 3\cdot\begin{vmatrix} x & 1 & 0 \\ x^2 & x & 0 \\ 1 & 2 & 3 \end{vmatrix}=0$; b) $2\cdot\begin{vmatrix} x^2 & 1 & 0 \\ 1 & 1 & 0 \\ 3 & 4 & 1 \end{vmatrix} - 3\cdot\begin{vmatrix} x & 3 \\ 2 & 4 \end{vmatrix}=16$;

d) $\dfrac{\begin{vmatrix} x^2 & 1 & 0 \\ 1 & 1 & 0 \\ 3 & 4 & 1 \end{vmatrix}}{\begin{vmatrix} x & 3 \\ 2 & 4 \end{vmatrix}} - \dfrac{\begin{vmatrix} 4 & 2 \\ 3 & 6 \end{vmatrix}}{4x-6} = -\dfrac{67}{4}$; e) $\dfrac{3}{\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 4 & 6 \\ 1 & 2 & 1 \end{vmatrix}} - x = 1.$

10-§. CHIZIQLI TENGLAMALAR SISTEMASI

$\begin{cases} a_1x + b_1y = c_1, \\ a_2x + b_2y = c_2 \end{cases}$ sistema ikki o'zgaruvchili chiziqli tenglamalar sistemasi deyila. Bu yerda $a_1, b_1, c_1, a_2, b_2, c_2$ lar haqiqiy sonlar bo'lib, ularning hammasi bir vaqtda nolga teng bo'lishi ham mumkin.


Yagona yechimga ega bo'lgan sistema *aniq sistema* deb, cheksiz ko'p yechimga ega bo'lgan sistema esa *aniqmas sistema* deb ataladi.

Echimga ega bo'lmagan sistema *birgalikda bo'lmagan sistema* deyiladi.

$\Delta = \begin{vmatrix} a_1 & b_1 \\ a_2 & b_2 \end{vmatrix}$ ni sistemaning *asosiy determinanti* deb, quyidagi determinantlarni esa sistemaning *yordamchi determinantlari* deb ataymiz:

$$\Delta_x = \begin{vmatrix} c_1 & b_1 \\ c_2 & b_2 \end{vmatrix}; \quad \Delta_y = \begin{vmatrix} a_1 & c_1 \\ a_2 & c_2 \end{vmatrix}.$$

Teorema.



$x = \dfrac{\Delta x}{\Delta}$ $y = \dfrac{\Delta y}{\Delta}$

Misol 1. $\begin{cases} 2x + ay = a + 2, \\ (a+1)x + 2ay = 2a + 4 \end{cases}$ sistema a ning qanday qiymatlarida cheksiz ko'p yechimga ega bo'ladi?

Yechish. Teoremadan ko'rinadiki, sistema quyidagi hollardagina aniqmas sistema bo'la oladi:

1) $\Delta = \Delta_x = \Delta_y = 0$ va o'zgaruvchilar oldidagi koeffisiyentlardan kamida bittasi noldan farqli;

2) sistemadagi 6 ta koeffitsiyentning hammasi nolga teng.

Bizning sistema uchun 2-hol o'rinli emas. Shu sababli, 1-holni qarash yetarlidir.

Berilgan sistema aniqmas sistema bo'lishi uchun a parametr quyidagi sis-temaning yechimi bo'lishi kerak:

$$\begin{cases} \Delta = \begin{vmatrix} 2 & a \\ a+1 & 2a \end{vmatrix} = 0, \\ \Delta_x = \begin{vmatrix} a+2 & a \\ 2a+4 & 2a \end{vmatrix} = 0, \\ \Delta_y = \begin{vmatrix} 2 & a+2 \\ a+1 & 2a+4 \end{vmatrix} = 0. \end{cases}$$

Bu sistema yagona yechimga ega: $a=3$.

Javob: $a=3$.

10.1. Sistemani o'rniga qo'yish usuli bilan yeching:

a) $\begin{cases} x - y = 5, \\ 2x + 3y = 5; \end{cases}$ b) $\begin{cases} 2x - y = 1, \\ 3x + 4y = 5; \end{cases}$ d) $\begin{cases} x + y = 5, \\ 2x + 2y = 10; \end{cases}$

e) $\begin{cases} \frac{1}{2}x - y = 5, \\ x - 9y = 31; \end{cases}$ f) $\begin{cases} \frac{1}{2}x + \frac{1}{3}y = 6, \\ \frac{x}{5} + \frac{y}{4} = 3\frac{9}{20}; \end{cases}$ g) $\begin{cases} \frac{3}{4}x - \frac{5}{7}y = \frac{23}{168}, \\ 21x - 20y = 21; \end{cases}$

h) $\begin{cases} 0{,}3x - y = \frac{4}{7}, \\ 30x - 10y = \frac{40}{7}; \end{cases}$ i) $\begin{cases} 0{,}3 - 4y = \frac{1}{3}, \\ 0{,}7x - 7y = 43. \end{cases}$

10.2. Sistemani algebraik qo'shish usulida yeching:

a) $\begin{cases} x - y = -1, \\ 4x + y = 6; \end{cases}$ b) $\begin{cases} 2x + y = 2, \\ -2x - y = 3; \end{cases}$ d) $\begin{cases} 2x + 3y = 7, \\ -4x - 6y = -14; \end{cases}$

e) $\begin{cases} 2x + 3y = 2, \\ \frac{1}{2}x - 3y = -\frac{11}{8}; \end{cases}$ f) $\begin{cases} 2x + 3y = \frac{281}{143}, \\ 3x + 4y = \frac{405}{143}; \end{cases}$ g) $\begin{cases} 3{,}1x + \frac{1}{13}y = 1, \\ 3{,}1x + \frac{1}{11}y = 3. \end{cases}$

10.3. Sistemaning asosiy determinantini hisoblang:

a) $\begin{cases} 3x + 4y = 7, \\ 2x - 5y = 1; \end{cases}$; b) $\begin{cases} 1{,}2x - 4y = 3, \\ 3x - 5y = 7; \end{cases}$;

d) $\begin{cases} ax - y = 1, \\ 5x + 2y = 2; \end{cases}$; e) $\begin{cases} ax - by = 1, \\ 13x - 4y = 2. \end{cases}$

10.4. Sistemaning yordamchi determinantlarini hisoblang:

a) $\begin{cases} 2x - 3y = 1, \\ x - y - 7 = 0; \end{cases}$ b) $\begin{cases} 3x - 1{,}7y = 2, \\ 4x - 4{,}3y = 1; \end{cases}$

d) $\begin{cases} 3x - 5y = 2, \\ 4x - 4{,}3y = 5; \end{cases}$ e) $\begin{cases} 4x - 3y = 5, \\ 6x - 7y = 0. \end{cases}$

10.5. Sistemani Kramer formulalaridan foydalanib yeching:

a) $\begin{cases}2x+3y=-4,\\3x+8y=1;\end{cases}$ f) $\begin{cases}x-2y=0,\\4x-8y=5;\end{cases}$ j) $\begin{cases}x-y=1,\\3x-3y=-3;\end{cases}$

b) $\begin{cases}2x+11y=15,\\10x-11y=9;\end{cases}$ g) $\begin{cases}2x-y=3,\\x-0{,}5y=1;\end{cases}$ k) $\begin{cases}3x-5y=0,\\-15x+25y=0;\end{cases}$

d) $\begin{cases}2x-3y=-3,\\x+3y=21;\end{cases}$ h) $\begin{cases}-x+3y=-2,\\2x-6y=-1;\end{cases}$ l) $\begin{cases}2x-3y=-1,\\4x-6y=1;\end{cases}$

e) $\begin{cases}2x-3y=16,\\x+2y=1;\end{cases}$ i) $\begin{cases}\frac{3}{4}x-\frac{5}{7}x=\frac{23}{168},\\2x+6y=\frac{31}{165};\end{cases}$ m) $\begin{cases}7x-2y=16,\\3{,}5x-y=8.\end{cases}$

10.6. $\begin{cases}3x-5y=-7,\\4x+7y=18\end{cases}$ sistema berilgan:

a) Sistemaning har bir tenglamasi nechta yechimga ega?
b) Sistema nechta yechimga ega?

10.7. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases}2x+ay=-6,\\ax+8y=12;\end{cases}$ b) $\begin{cases}ax-(a-1)y=0{,}5,\\(a-1)x-ay=a;\end{cases}$

d) $\begin{cases}3x-ay=6-a,\\-ax+3y=3-2a.\end{cases}$

10.8. $\begin{cases}a^2x-ay=a-1,\\bx+(3-2b)y=3+a\end{cases}$ sistema (1;1) dan iborat yagona yechimga ega. a va b larni toping.

10.9. a va b larning quyidagi sistema cheksiz ko'p yechimga ega bo'ladigan barcha qiymatlarini toping:

$\begin{cases}a^2x-by=a^2-b,\\bx-b^2y=2+4b.\end{cases}$

10.10. a ning qanday qiymatlarida quyidagi sistema yechimga ega bo'lmaydi:

$\begin{cases}ax-4y=a+1,\\2x+(a+6)y=a+3\end{cases}$

10.11. a ning qanday qiymatlarida

$\begin{cases}2x-ay=a+2,\\(a+1)y+2ay=2a+4\end{cases}$ sistema cheksiz ko'p yechimga ega bo'ladi?

10.12. Sistemani Gauss usulida yeching:

a) $\begin{cases}x+y+z=1,\\2x+3y-2z=7,\\3x+2y+5z=0;\end{cases}$ b) $\begin{cases}x+y-z=-1,\\3x-2y+4z=9,\\2x+3y+2z=1;\end{cases}$

d) $\begin{cases}x-y+z=-1,\\2x+3y+4z=5,\\3x-2y-2z=-7;\end{cases}$ e) $\begin{cases}x-y-z=-1,\\4x+5y-3z=6,\\2x+3y-2z=3;\end{cases}$

f) $\begin{cases}-x+y+z=-3,\\2x+2y-3z=3,\\3x+4y+5z=-6;\end{cases}$ g) $\begin{cases}-x-y+z=3,\\5x+2y+3z=-4,\\3x+4y-2z=-9.\end{cases}$

10.13. Sistemani Kramer formulalari yordamida yeching:

a) $\begin{cases}-x_1+2x_2+3x_3=0,\\x_1-4x_2-13x_3=0,\\-3x_1+5x_2+4x_3=0;\end{cases}$ b) $\begin{cases}2x-4y+z=1,\\x-2y+4z=3,\\3x-y+5z=2;\end{cases}$

d) $\begin{cases}x+2y+3z=1,\\2x+y-z=3,\\3x+3y+2z=10;\end{cases}$ e) $\begin{cases}x+2y+3z=4,\\2x+4y+6z=3,\\3x+y-z=1;\end{cases}$

f) $\begin{cases}2x-3y+z-2=0,\\x+5y-4z+5=0,\\4x+y-3z=-4;\end{cases}$ g) $\begin{cases}7x+3y+2z=1,\\3x+y+2z=2,\\10x+12y+8z=4.\end{cases}$

10.14. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases}5x+2y+3z=-7,\\5x+2y+3z=4;\end{cases}$ b) $\begin{cases}5x-3y=7,\\-2x+9y=4,\\2x+4y=-2;\end{cases}$

d) $\begin{cases}4x+5z=6,\\y-6z=-2;\end{cases}$ e) $\begin{cases}x+2y=3,\\3y-2z=-1.\end{cases}$

11-§. CHIZIQLI BO'LMAGAN TENGLAMALAR SISTEMASI

1 - m i s o l. $\begin{cases}x-y=2,\\x^2+y^2=10\end{cases}$ sistemani yeching.

Y e c h i s h. Sistemaning tarkibida o'zgaruvchilarning birini ikkinchisi orqali chiziqli ifodalab olish imkonini beradigan tenglama mavjud. Bunday holda sistemani o'rniga qo'yish usuli bilan yechish mumkin. $x-y=2$ dan $x=y+2$ ni topib, ikkinchi tenglamada $x=y+2$ o'rniga qo'yishni bajaramiz: $(y+2)^2+y^2=10$.

Bu tenglama $y_1=-3$, $y_2=1$ ildizlarga ega. U holda $x_1=y_1+2=-3+2=-1$; $x_2=y_2+2=1+2=3$.

Javob: $(-1;-3)$ va $(3;1)$.

2 - m i s o l. $\begin{cases}x-y=1,\\x^2-y^2=3\end{cases}$ sistemani yeching.

Y e c h i s h. Bu sistemani ham o'rniga qo'yish usuli bilan yechish qulay. Ammo o'rniga qo'yishni boshqacha yo'l bilan amalga oshiramiz: $x^2-y^2=(x-y)(x+y)$ bo'lgani uchun siste-

mani $\begin{cases} x-y=1, \\ x+y=3 \end{cases}$ ko'rinishda yozib olamiz. Bu esa chiziqli tenglamalar sistemasidir. Uni yechib, (2;1) yechimni topamiz.

Javob: (2;1).

3 - misol. $\begin{cases} x+y=15, \\ xy=56 \end{cases}$ sistemani yeching.

Yechish. Bu sistemaga o'rniga qo'yish usulini qo'llasak, kvadrat tenglamani yechishdan iborat oraliq masalaga kelib qolamiz. Bu kvadrat tenglamani berilgan sistemaga o'rniga qo'yish usulini qo'llamay hosil qilish mumkin. Buning uchun Viet teoremasiga teskari teoremadan foydalanish zarur.

x, y lar uchun $x+y=15$, $xy=56$ bo'lsa, ular $t^2-15t+56=0$ kvadrat tenglamaning ildizlari bo'ladi. $t^2-15t+56=0$ tenglamani yechib, $t_1=7$, $t_2=8$ larni topamiz. Demak, $x_1=7$, $y_1=8$ va $x_2=8$, $y_2=7$.

Javob: (7;8) va (8;7).

3 - misolda qarab chiqilgan usul «yordamchi kvadrat tenglama tuzish usuli» deb atalishi mumkin.

4 - misol. $\begin{cases} x-y=1, \\ xy=12 \end{cases}$ sistemani yeching.

Echish. $z=-y$ deb olib, sistemani quyidagicha yozib olamiz:

$$\begin{cases} x+z=1, \\ xz=-12 \end{cases}$$

Yordamchi kvadrat tenglamani tuzamiz:

$$t^2-t-12=0.$$

Bundan $t_1=-3$, $t_2=4$ larni topamiz. U holda $x_1=-3$, $z_1=4$ va $z_2=4$, $z_2=-3$ bo'ladi. $z=-y$ ekanini e'tiborga olib, berilgan sistemaning yechimlarini aniqlaymiz: $x_1=-3$; $y_1=-4$; $x_2=4$; $y_2=3$.

Javob: (–3;–4); (4;3).

5 - misol. $\begin{cases} x^2+y^2=10, \\ xy=3 \end{cases}$ sistemani yeching.

Yechish. I usul. Ikkiga ko'paytirilgan ikkinchi tenglamani birinchi tenglamaga hadma-had qo'shib, $(x+y)^2=16$ tenglamani hosil qilamiz. Bundan $x+y=-4$ yoki $x+y=4$ ekanligi kelib chiqadi. Shuning uchun berilgan sistema ikkita sistemaga ajraladi:

$$\begin{cases} x+y=-4, \\ xy=3 \end{cases} \quad (1); \qquad \begin{cases} x+y=4, \\ xy=3 \end{cases} \quad (2).$$

(1) sistemani yechib, (–1;–3), (–3;–1) yechimlarni; (2) sistemani yechib, (1;3), (3;1) yechimlarni topamiz.

Shunday qilib, berilgan sistema (–1;–3), (–3;–1), (1;3) va (3;1) lardan iborat yechimlarga ega.

II usul. Berilgan sistema yordamida o'zgaruvchilardan birining ikkinchisiga nisbatini topishga harakat qilamiz. Tenglamalarning chap tomonlarida bir xil darajali hadlar turgani sababli bir jinsli tenglama hosil qilish mumkin. Buning uchun uchga ko'paytirilgan birinchi tenglamadan 10 ga ko'paytirilgan ikkinchi tenglamani ayiramiz: $3x^2-10xy+3y^2=0$.

Sistemadan ko'rinib turibdiki, $x\neq0$, $y\neq0$. Shy sababli, hosil qilingan bir jinsli tenglamadan $\frac{x}{y}$ ni topish mumkin:

$$3\left(\frac{x}{y}\right)^2-10\cdot\frac{x}{y}+3=0;$$

$$\frac{x}{y}=\frac{1}{3} \text{ yoki } \frac{x}{y}=3.$$

U holda berilgan sistema quyidagi sistemalarga ajraladi:

$$\begin{cases} 3x=y, \\ xy=3 \end{cases} \quad (3); \qquad \begin{cases} x=3y, \\ xy=3 \end{cases} \quad (4).$$

Bu sistemalar ham birinchi usulda topilgan yechimlarga olib keladi.

6 - misol. $\begin{cases} x(x+y)=12, \\ y(x+y)=4 \end{cases}$ sistemani yeching.

Yechish. 5-misoldagi yechishning ikkinchi usulida o'zgaruvchilardan birining ikkinchisiga nisbatini bir jinsli tenglama tuzib topdik. Bu misolda ham shunday qilish mumkin. Biroq, bu sistema uchun o'zgaruvchilar nisbatini boshqa usulda topish qulay.

$x+y\neq0$, $x\neq0$, $y\neq0$ ekani ravshan. Shuning uchun tenglamalarni hadma-had bo'lish mumkin:

$$\frac{x(x+y)}{y(x+y)}=\frac{12}{4} \text{ yoki } \frac{x}{y}=3.$$

Natijada $\begin{cases} y(x+y)=4, \\ x=3y \end{cases}$ sistemaga ega bo'lamiz. Bu sistema va demak, berilgan sistema ham (–3;–1), (3;1) yechimlarga ega.

Javob: (–3;–1) va (3;1).

7-misol. $\begin{cases} x+y+xy=7, \\ x^2+y^2+xy=13 \end{cases}$ sistemani yeching.

Yechish. Sistemada x ni y bilan, y ni esa x bilan almashtirsak, yana shu sistemaning o'zi hosil bo'ladi. Bunday sistemalar *simmetrik sistema* deb ataladi.

$x+y=u$, $xy=v$ deb olib, $\begin{cases} u+v=7, \\ u^2-v=13 \end{cases}$ sistemani hosil qilamiz.

Bundan $u_1=4$, $v_1=3$ va $u_2=-5$, $v_2=12$.

Eski o'zgaruvchilarga qaytsak,

$\begin{cases} x+y=4, \\ xy=3 \end{cases}$ va $\begin{cases} x+y=-5, \\ xy=12 \end{cases}$ sistemalar hosil bo'ladi.

Ikkinchi sistema yechimga ega emas, birinchi sistema esa (1;3), (3;1) yechimlarga ega.

Javob: (1;3), (3;1).

11.1. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} x-y=1, \\ x^2+y^2=1; \end{cases}$ b) $\begin{cases} x^2-3xy-2y^2=2, \\ x+2y=1; \end{cases}$ d) $\begin{cases} y-2x=2, \\ 5x^2-y=1; \end{cases}$

e) $\begin{cases} x-2y+1=0, \\ 5xy+y^2=16; \end{cases}$ f) $\begin{cases} x+y=4, \\ y+xy=6; \end{cases}$ g) $\begin{cases} 2x^2-xy=33, \\ 4x-y=17. \end{cases}$

11.2. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} x+y=5, \\ xy=6; \end{cases}$ b) $\begin{cases} x+y=3, \\ xy+4=0; \end{cases}$ d) $\begin{cases} x+y=7, \\ xy=12; \end{cases}$

e) $\begin{cases} x-y=5, \\ xy=-6; \end{cases}$ f) $\begin{cases} x-y=9, \\ xy=-20; \end{cases}$ g) $\begin{cases} x-y=10, \\ xy=-21. \end{cases}$

11.3. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} \frac{x}{25}+\frac{y}{9}=1, \\ x^2+y^2=1; \end{cases}$ b) $\begin{cases} 8x+7y=56, \\ x^2+y^2-4y=0; \end{cases}$

d) $\begin{cases} x+y=1, \\ x^2+xy+y=1; \end{cases}$ e) $\begin{cases} x-2y=-3, \\ -2y^2+xy+3y=0. \end{cases}$

11.4. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} x^2+y^2=20, \\ xy=8; \end{cases}$ f) $\begin{cases} y^2-xy=12, \\ x^2-xy=28; \end{cases}$

b) $\begin{cases} x^2+y^2=68, \\ xy=16; \end{cases}$ g) $\begin{cases} x^2+y^2=25-2xy, \\ y(x+y)=10; \end{cases}$

d) $\begin{cases} x(x+y)=9, \\ y(x+y)=16; \end{cases}$ h) $\begin{cases} 5(x+y)+2xy=-19, \\ 15xy+5(x+y)=-175; \end{cases}$

e) $\begin{cases} x^2+xy=15, \\ y^2+xy=10; \end{cases}$ i) $\begin{cases} 5(x+y)+2xy=-19, \\ 3xy+x+y=-35; \end{cases}$

d) $\begin{cases} x^2-xy=28, \\ y^2-xy=-12; \end{cases}$ k) $\begin{cases} 4x^2+y^2-2xy=7, \\ (2x-y)y=y. \end{cases}$

11.5. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} x+y+xy=5, \\ x^2+y^2+xy=7; \end{cases}$ f) $\begin{cases} xy+3y^2-x+4y-7=0, \\ 2xy+y^2-2x-2y+1=0; \end{cases}$

b) $\begin{cases} 2x^2-xy+3x^2\ 17, \\ y^2-x^2=16; \end{cases}$ g) $\begin{cases} 2xy+y^2-4x-3y+2=0, \\ xy+3y^2-2x-14y+16=0; \end{cases}$

d) $\begin{cases} x^2-xy+y^2=21, \\ y^2-2xy+15=0; \end{cases}$ h) $\begin{cases} 3x^2+xy-2x+y-5=0, \\ 2x^2-xy-3x-y-5=0; \end{cases}$

e) $\begin{cases} 2y^2+xy-x^2=0, \\ x^2-xy-y^2+3x+7y+3=0; \end{cases}$ i) $\begin{cases} 2x^2+y^2+3xy=12, \\ 2(x+y)^2-y^2=14. \end{cases}$

11.6. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} xy-x+y=1, \\ x^2y-xy^2=30; \end{cases}$ b) $\begin{cases} xy+x-y=3, \\ x^2y-xy^2=2; \end{cases}$

d) $\begin{cases} x^2+xy+x=10, \\ y^2+xy+y=20; \end{cases}$ e) $\begin{cases} x^2+xy+2y^2=37, \\ 2x^2+2xy+y^2=26. \end{cases}$

11.7. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} x^3+y^3=55, \\ x+y=5; \end{cases}$ f) $\begin{cases} x^4+y^4=82, \\ xy=3; \end{cases}$

b) $\begin{cases} x-y=1, \\ x^3-y^3=7; \end{cases}$ g) $\begin{cases} x^3+y^3=7, \\ x^3y^3=-8; \end{cases}$

d) $\begin{cases} x^3+y^3=7, \\ xy(x+y)=-2; \end{cases}$ h) $\begin{cases} (x^2+y^2)xy=78, \\ x^4+y^4=97; \end{cases}$

e) $\begin{cases} \frac{x^2}{y}+\frac{y^2}{x}=18, \\ x+y=12; \end{cases}$ i) $\begin{cases} x^3+y^3=19, \\ x-y=5. \end{cases}$

11.8. Sistemani yeching:

a) $\begin{cases} x+y+z=13, \\ x^2+y^2+z^2=91, \\ y^2=xz; \end{cases}$ b) $\begin{cases} \frac{xy}{x+y}=1, \\ \frac{xz}{x+z}=2, \\ \frac{yz}{y+z}=3; \end{cases}$

d) $\begin{cases} x^2+y^2+z^2=xy+yz+zx, \\ x^3+y^3+z^3=1; \end{cases}$ e) $\begin{cases} x+y+z=0, \\ x^2+y^2+z^2=1, \\ x^3+y^3+z^3=0; \end{cases}$

f) $\begin{cases} x+y+z=1, \\ x^2+y^2+z^2=1, \\ x^4+y^4+z^4=1; \end{cases}$ g) $\begin{cases} xy=2, \\ yz=3, \\ zx=6. \end{cases}$

12-§. MATNLI MASALALAR

1 - m a s a l a. Ikki ishchi birga ishlab smena davomida 72 ta detal tayyorladi. Ishlab chiqarish unumdorligini birinchi ishchi 15% ga, ikkinchi ishchi esa 25% ga oshirgach, ular smena davomida birgalikda 86 ta detal tayyorlay boshlashdi. Mehnat unumdorligi oshgach, har bir ishchi smena davomida nechtadan detal tayyorlagan?

Y e c h i s h. Mehnat unumdorligini oshirgunga qadar birinchi ishchi smena mobaynida x ta detal, ikkinchisi esa y ta detal tayyorlagan bo'lsin. U holda mehnat unumdorligi oshgandan so'ng, birinchi ishchi $x+0{,}15x$ ta detal, ikkinchi ishchi esa $y+0{,}25y$ ta detal tayyorlay boshlagan.

Quyidagi sistemaga ega bo'lamiz: $\begin{cases} x + y = 72, \\ 1{,}15x + 1{,}25y = 86. \end{cases}$

Bundan x=40, y=32 larni topamiz. Mehnat unumdorligi oshgach birinchi ishchi smena mobaynida $1{,}15x=1{,}15\cdot 40=46$ ta, ikkinchi ishchi esa $1{,}25y=1{,}25\cdot 32=40$ ta detal tayyorlagan.

J a v o b: 46 ta va 40 ta.

2 - m a s a l a. Ikki sonning yig'indisi 60 ga, nisbati esa 4 ga teng. Shu sonlarni toping.

Y e c h i s h. x va y izlangan sonlar bo'lib, $x>y$ bo'lsin. Quyidagi sistemaga egamiz:

$\begin{cases} x + y = 60, \\ x:y = 4. \end{cases}$ Bu sistemadan $x=48$, $y=12$ ni topamiz.

J a v o b: 48 va 12.

3-m a s a l a. Ikki ishchining ikkinchisi birinchisidan $1\frac{1}{2}$ kun keyin ishga tushsa, ular birgalikda bir ishni 7 kunda tamomlay oladilar. Agar bu ishni har qaysi ishchi yolg'iz o'zi bajarsa, u holda birinchi ishchi ikkinchi ishchiga qaraganda 3 kun ortiq ishlashi kerak bo'ladi. Har qaysi ishchining yolg'iz o'zi bu ishni necha kunda tamomlay oladi?

Y e c h i s h. Birinchi ishchi yolg'iz o'zi ishlab, ishni x kunda, ikkinchi ishchi esa yolg'iz o'zi ishlab, y kunda bajarsin. U holda birinchi ishchi bir kunda ishning $\frac{1}{x}$ qismini, ikkinchi ishchi bir kunda ishning $\frac{1}{y}$ qismini bajaradi.

Birinchi ishchi $1\frac{1}{2}$ kun ishlab, ishning $1\frac{1}{2}\cdot\frac{1}{x}=\frac{3}{2x}$ qismini bajargach, ikkinchi ishchi ishlashni boshladi. Ular birgalikda 7 kun ishlagan. Shu 7 kunda ishning $7\cdot\frac{1}{x}+7\cdot\frac{1}{y}=\frac{7x+7y}{xy}$ qismi bajarilgan. Shunga ko'ra $\frac{3}{2x}+\frac{7x+7y}{xy}=1$ tenglamaga ega bo'lamiz. Yolg'iz o'zi ishlagan birinchi ishchi ikkinchisiga qaraganda 3 kun ko'p ishlab, ishni tamomlaydi. Demak, $x-3=y$.

$\begin{cases} \frac{3}{2x}+\frac{7x+7y}{xy}=1, \\ x-3=y \end{cases}$ sistemani hosil qilamiz. Bu sistemani yechsak, $x=17$, $y=14$ ekani topiladi.

J a v o b: Birinchi ishchi 17 kunda, ikkinchi ishchi 14 kunda.

4 - m a s a l a. Oltin va kumushdan hosil qilingan ikki xil qotishmalarning birinchisida oltin va kumush 2:3 nisbatda, ikkinchisida esa 3:7 nisbatda ekanligi ma'lum. Oltin va kumush 5:11 nisbatda bo'ladigan yangi qotishma hosil qilish uchun ko'rsatilgan qotishmalarni qanday nisbatda olish kerak?

Y e c h i s h. Birinchi qotishmaning $\frac{2}{2+3}=\frac{2}{5}$ qismi oltin va $\frac{2}{2+3}=\frac{2}{5}$ qismi kumushdan iborat. Ikkinchi qotishmaning $\frac{3}{3+7}=\frac{3}{10}$ qismi oltin va $\frac{3}{3+7}=\frac{3}{10}$ qismi esa kumushdir.

Yangi qotishma hosil qilish uchun olingan birinchi qotishmaning miqdorini x bilan va ikkinchi qotishmaning miqdorini y bilan belgilaylik (x va y lar og'irlikni ifodalaydi).

x miqdordagi birinchi qotishmadagi oltinning va kumushning miqdori mos ravishda $\frac{2}{5}x$ va $\frac{3}{5}x$ ga teng. y miqdordagi ikkinchi qotishmadagi oltinning miqdori $\frac{3}{10}y$ ga, kumushning miqdori esa, $\frac{7}{10}y$ ga teng. Yangi qotishmaga $\frac{2}{5}x+\frac{3}{10}y$ miqdorda oltin va $\frac{3}{5}x+\frac{7}{10}y$ miqdorda kumush kiradi. Shartga ko'ra, $\frac{\frac{2}{5}x+\frac{3}{10}y}{\frac{3}{5}x+\frac{7}{10}y}=\frac{5}{11}$. Bu tenglik yordamida $\frac{x}{y}$ nisbatni topamiz:

$\frac{4x+3y}{6x+7y}=\frac{5}{11}\Rightarrow 44x+33y\Rightarrow 30x+35y\Rightarrow 14x=2y\Rightarrow\frac{x}{y}=\frac{1}{7}$.

J a v o b. Qotishmalarni 1:7 nisbatda olish kerak.

12-§. MATNLI MASALALAR

1 - m a s a l a. Ikki ishchi birga ishlab smena davomida 72 ta detal tayyorladi. Ishlab chiqarish unumdorligini birinchi ishchi 15% ga, ikkinchi ishchi esa 25% ga oshirgach, ular smena davomida birgalikda 86 ta detal tayyorlay boshlashdi. Mehnat unumdorligi oshgach, har bir ishchi smena davomida nechtadan detal tayyorlagan?

Y e c h i s h. Mehnat unumdorligini oshirgunga qadar birinchi ishchi smena mobaynida x ta detal, ikkinchisi esa y ta detal tayyorlagan bo'lsin. U holda mehnat unumdorligi oshgandan so'ng, birinchi ishchi $x+0{,}15x$ ta detal, ikkinchi ishchi esa $y+0{,}25y$ ta detal tayyorlay boshlagan.

Quyidagi sistemaga ega bo'lamiz: $\begin{cases} x + y = 72, \\ 1{,}15x + 1{,}25y = 86. \end{cases}$

Bundan x=40, y=32 larni topamiz. Mehnat unumdorligi oshgach birinchi ishchi smena mobaynida $1{,}15x=1{,}15\cdot 40=46$ ta, ikkinchi ishchi esa $1{,}25y=1{,}25\cdot 32=40$ ta detal tayyorlagan.

J a v o b: 46 ta va 40 ta.

2 - m a s a l a. Ikki sonning yig'indisi 60 ga, nisbati esa 4 ga teng. Shu sonlarni toping.

Y e c h i s h. x va y izlangan sonlar bo'lib, $x>y$ bo'lsin. Quyidagi sistemaga egamiz:

$\begin{cases} x + y = 60, \\ x:y = 4. \end{cases}$ Bu sistemadan $x=48$, $y=12$ ni topamiz.

J a v o b: 48 va 12.

3-m a s a l a. Ikki ishchining ikkinchisi birinchisidan $1\frac{1}{2}$ kun keyin ishga tushsa, ular birgalikda bir ishni 7 kunda tamomlay oladilar. Agar bu ishni har qaysi ishchi yolg'iz o'zi bajarsa, u holda birinchi ishchi ikkinchi ishchiga qaraganda 3 kun ortiq ishlashi kerak bo'ladi. Har qaysi ishchining yolg'iz o'zi bu ishni necha kunda tamomlay oladi?

Y e c h i s h. Birinchi ishchi yolg'iz o'zi ishlab, ishni x kunda, ikkinchi ishchi esa yolg'iz o'zi ishlab, y kunda bajarsin. U holda birinchi ishchi bir kunda ishning $\frac{1}{x}$ qismini, ikkinchi ishchi bir kunda ishning $\frac{1}{y}$ qismini bajaradi.

Birinchi ishchi $1\frac{1}{2}$ kun ishlab, ishning $1\frac{1}{2}\cdot\frac{1}{x}=\frac{3}{2x}$ qismini bajargach, ikkinchi ishchi ishlashni boshladi. Ular birgalikda 7 kun ishlagan. Shu 7 kunda ishning $7\cdot\frac{1}{x}+7\cdot\frac{1}{y}=\frac{7x+7y}{xy}$ qismi bajarilgan. Shunga ko'ra $\frac{3}{2x}+\frac{7x+7y}{xy}=1$ tenglamaga ega bo'lamiz. Yolg'iz o'zi ishlagan birinchi ishchi ikkinchisiga qaraganda 3 kun ko'p ishlab, ishni tamomlaydi. Demak, $x-3=y$.

$\begin{cases} \frac{3}{2x}+\frac{7x+7y}{xy}=1, \\ x-3=y \end{cases}$ sistemani hosil qilamiz. Bu sistemani yechsak, $x=17$, $y=14$ ekani topiladi.

J a v o b: Birinchi ishchi 17 kunda, ikkinchi ishchi 14 kunda.

4 - m a s a l a. Oltin va kumushdan hosil qilingan ikki xil qotishmalarning birinchisida oltin va kumush 2:3 nisbatda, ikkinchisida esa 3:7 nisbatda ekanligi ma'lum. Oltin va kumush 5:11 nisbatda bo'ladigan yangi qotishma hosil qilish uchun ko'rsatilgan qotishmalarni qanday nisbatda olish kerak?

Y e c h i s h. Birinchi qotishmaning $\frac{2}{2+3}=\frac{2}{5}$ qismi oltin va $\frac{2}{2+3}=\frac{2}{5}$ qismi kumushdan iborat. Ikkinchi qotishmaning $\frac{3}{3+7}=\frac{3}{10}$ qismi oltin va $\frac{3}{3+7}=\frac{3}{10}$ qismi esa kumushdir.

Yangi qotishma hosil qilish uchun olingan birinchi qotishmaning miqdorini x bilan va ikkinchi qotishmaning miqdorini y bilan belgilaylik (x va y lar og'irlikni ifodalaydi).

x miqdordagi birinchi qotishmadagi oltinning va kumushning miqdori mos ravishda $\frac{2}{5}x$ va $\frac{3}{5}x$ ga teng. y miqdordagi ikkinchi qotishmadagi oltinning miqdori $\frac{3}{10}y$ ga, kumushning miqdori esa, $\frac{7}{10}y$ ga teng. Yangi qotishmaga $\frac{2}{5}x+\frac{3}{10}y$ miqdorda oltin va $\frac{3}{5}x+\frac{7}{10}y$ miqdorda kumush kiradi.

Shartga ko'ra, $\frac{\frac{2}{5}x+\frac{3}{10}y}{\frac{3}{5}x+\frac{7}{10}y}=\frac{5}{11}$. Bu tenglik yordamida $\frac{x}{y}$ nisbatni topamiz:

$\frac{4x+3y}{6x+7y}=\frac{5}{11}\Rightarrow 44x+33y\Rightarrow 30x+35y\Rightarrow 14x=2y\Rightarrow\frac{x}{y}=\frac{1}{7}$.

J a v o b. Qotishmalarni 1:7 nisbatda olish kerak.

5 - m a s a l a. Mahsulot dastlab 20 % ga arzonlashtirildi. Yangi narx yana 10 % kamaytirilgach, hosil bo'lgan keyingi narx yana 5% ga kamaytirildi. Mahsulotning dastlabki narxi necha foiz kamaytirildi?

Y e c h i s h. Mahsulotning dastlabki narxi x (so'm) bo'lsin. Bu narx 20% kamaytirilgach, mahsulotning narxi $x-0{,}20x=0{,}80x$ (so'm) bo'ladi. Bu narx 10 % kamaytirilsa, $0{,}80x-0{,}10\cdot 0{,}80x=0{,}72x$ so'mdan iborat bo'lgan yangi narx paydo bo'ladi. Bu narx 5 % kamaytirilsa, mahsulotning oxirgi narxi $0{,}72x-0{,}05\cdot 0{,}72x=0{,}684x$ so'm ekanligi kelib chiqadi.

Dastlabki narx x so'm, eng oxirgi narx $0{,}684x$ so'm bo'ldi. Mahsulot $x-0{,}684x=0{,}316x$ so'mga arzonlashtirildi. $0{,}316x$ so'm x so'mning necha foizini tashkil etishini topamiz.

Proporsiya tuzaylik: $\frac{x}{0{,}316x}=\frac{100}{p}$. Bundan $p=31{,}6$ ekani kelib chiqadi.

J a v o b. 31,6 %.

6 - m a s a l a. Ikki xonali noma'lum son raqamlarining yig'indisi 12 ga teng. Shu ikki xonali noma'lum songa 36 soni qo'shilsa, noma'lum sonning raqamlarini teskari tartibda yozishdan hosil bo'ladigan son kelib chiqadi. Noma'lum sonni toping.


Y e c h i s h. Ikki xonali noma'lum sonning raqamlari x, y bo'lsin, ya'ni $xy = 10x + y$ izlangan son bo'lsin. Quyidagilarga egamiz:

$\begin{cases} x+y=12, \\ \overline{xy}+36=\overline{yx} \end{cases}$, yoki $\begin{cases} x+y=12, \\ 10x+y+36=10y+x. \end{cases}$ Bu sistemadan $x=4$, $y=8$ ekani kelib chiqadi. Demak, izlangan son 48 ekan.

J a v o b: 48.

7 - m a s a l a. Yuk poezdi A shahardan B shaharga qarab jo'nadi (16-rasm). Oradan 3 soat o'tgach, A shahardan V shaharga qarab, yo'lovchi poezdi yo'lga chiqdi va oradan 15 soat o'tgach yuk poezdidan 300 km o'zib ketdi. Agar yo'lovchi poezdining tezligi yuk poezdining tezligidan 30 km/soat ortiq bo'lsa, yuk poezdining tezligini toping.

Y e c h i s h. Yuk poezdining tezligi x km/soat bo'lsin. U holda yo'lovchi poezdining tezligi $x+30$ km/soat bo'ladi. Yo'lovchi poezdi 15 soat yurib, $15(x+30)$ km masofani bosib o'tadi. Yuk poezdi 18 soatda $18x$ km masofani bosib o'tgan.



16-rasm.

Shunga ko'ra $18x+300=15(x+30)$ tenglamaga ega bo'lamiz. Uni yechib, $x=50$ ekanini aniqlaymiz.

J a v o b. 50 km/soat.

Quyidagi masalalarni kvadrat tenglama tuzib yeching:

12.1. To'g'ri to'rtburchakning balandligi asosining 75% iga teng. Agar shu to'g'ri to'rtburchakning yuzi 48 m^2 bo'lsa, uning perimetrini toping.

12.2. 15 t sabzavotni tashish uchun ma'lum miqdorda yuk ortadigan bir necha mashina so'ralgan edi. Garajda tayyor turgan mashinalar bo'lmagani uchun, garaj so'ralgandan bitta ortiq, lekin 0,5 t kam yuk ortadigan mashinalar yubordi. Yuborilgan mashinalarning har biriga necha tonna sabzavot ortilgan?

12.3. Jamoa xo'jaligi 200 ga yerga ma'lum muddatda chigit ekib bo'lishi kerak edi, ammo u har kuni rejadagidan 5 ga ortiq ekib, ishni muddatidan 2 kun oldin tugatdi. Chigit ekish necha kunda tugatilgan?

12.4. Tomosha zalida 320 ta o'rin bor edi. Har bir qatordagi o'rinlar soni 4 ta orttirilib, yana bir qator qo'shilgandan so'ng 420 ta joy bo'ldi. Tomosha zalidagi joylar endi necha qator bo'ldi?

12.5. Kema oqimga qarshi 48 km va oqim bo'yicha ham shuncha yo'l bosdi, hamma yo'lga 5 soat vaqt sarf qildi. Daryo oqimining tezligi 4 km/soat bo'lsa, kemaning turg'un suvdagi tezligini toping.

12.6. Ikki pristan orasidagi masofa daryo yo'li bilan 80 km. Kema shu pristanlarning biridan ikkinchisiga borib kelish uchun 8 soat 20 minut vaqt sarf qiladi. Daryo oqimining tezligi 4 km/soat bo'lsa, kemaning turg'un suvdagi tezligini toping.

12.7. Qayiq daryo oqimiga qarshi 22,5 km, oqim bo'yicha esa 28,5 km yurib, butun yo'lga 8 soat vaqt sarfladi. Oqimning tezligi 2,5 km/soat. Qayiqning turg'un suvdagi tezligini toping.

12.8. Daryo yoqasidagi qishloqdan sol oqizildi. Oradan 5 soat 20 minut o'tgach, o'sha qishloqdan motorli qayiq jo'natildi. Motorli qayiq 20 km yo'l bosib, solga yetib oldi.

Agar motorli qayiqning tezligi solning tezligidan 12 km/soat ortiq bo'lsa, solning tezligini toping.

12.9. Suv ikkita quvurdan kelganda suv haydash qozoni 2 soat 55 minutda to'ladi. Birinchi quvurning yolg'iz o'zi suv haydash qozonini ikkinchisiga qaraganda 2 soat oldin to'ldira oladi. Har qaysi quvurning yolg'iz o'zi suv haydash qozonini qancha vaqtda to'ldiradi?


12.10. Ikki ishchi ayni bir ishni birgalashib ishlasa, 12 kunda tamom qiladi. Agar oldin bittasi ishlab, ishning yarmini tamom qilgandan keyin uning o'rniga ikkinchisi ishlasa, ish 25 kunda tamom bo'ladi. Shu ishni har qaysi ishchi yolg'iz o'zi ishlasa, necha kunda tamom qiladi?

12.11. Quvvatlari har xil ikkita traktor 4 kun birga ishlab jamoa xo'jaligi yerining $\frac{2}{3}$ qismini haydadi. Agar butun yerni birinchi traktor ikkinchisiga qaraganda 5 kun tezroq hayday olsa, butun yerni har qaysi traktor yolg'iz o'zi necha kunda hayday oladi?

12.12. Portdagi ikki kema bir vaqtda, biri shimolga qarab, ikkinchisi sharqqa qarab jo'nadi. 2 soatdan keyin ular orasidagi masofa 60 km bo'ldi. Bu kemalardan birining tezligi ikkinchisinikidan 6 km/soat ortiq. Har qaysi kemaning tezligini toping.

12.13. Har qanday uchtasi bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan 7 ta nuqtadan nechta turli to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin?

Y e c h i s h. Rasmga qarang (17-rasm):



17-rasm.

Boshi A_1 nuqtada bo'lgan 6 ta vektorga egamiz. Boshi qolgan nuqtalarda bo'lgan vektorlar ham 6 tadan bo'ladi. Hammasi bo'lib 7·6=42 ta turli vektorlar hosil bo'ladi. Bu vektorlar 21 juft qarama-qarshi vektorlardir. Qarama-qarshi vektorlar jufti bitta to'g'ri chiziqda yotadi (Bizning misolda).

Shunday qilib, aytilgan to'g'ri chiziqlar 42:2=21 ta ekan.

Topshiriq. Har qanday uchtasi bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan n ta nuqta orqali o'tuvchi turli to'g'ri chiziqlar soni $\frac{n(n-1)}{2}$ ga tengligini isbotlang. Bu tasdiqdan foydalanib, 12.14–12.18-masalalarni yeching.

12.14. Futbol o'yini musobaqasida hammasi bo'lib 55 ta o'yin o'ynaldi. Bunda har bir komanda qolgan komandalar bilan faqat bir martadan o'ynadi. Musobaqada nechta komanda qatnashgan?

12.15. Shaxmat turnirida hammasi bo'lib 231 partiya shaxmat o'ynaldi. Agar har bir shaxmatchi qolgan shaxmatchilarning har biri bilan faqat bir partiya shaxmat o'ynagan bo'lsa, turnirda necha kishi qatnashgan?

12.16. Maktab bitiruvchilari bir-birlari bilan rasm almashtirdi. Agar 870 ta rasm almashtirilgan bo'lsa, maktabni necha o'quvchi bitirgan?

12.17. Qavariq ko'pburchakning 14 ta diagonali mavjud. Uning tomonlari nechta?

12.18. Qanday ko'pburchak diagonallarining soni tomonlarining sonidan 12 ta ortiq bo'ladi?

Tenglamalar sistemasi tuzib yechiladigan masalalar

12.19. Poezd yo'lda 6 minut to'xtab qoldi va 20 km yo'lda tezligini soatiga jadvaldagidan 10 km oshirib, kechikishni yo'qotdi. Poezd shu yo'lda jadvalga muvofiq qanday tezlik bilan yurishi kerak edi?

12.20. *A* va *B* stansiyalar orasidagi yo'lning o'rtasida poezd 10 minut to'xtab qoldi. *B* stansiyaga kechikmasdan borish uchun haydovchi poezdning dastlabki tezligini 6 km/soat oshirdi. Agar stansiyalar orasidagi masofa 60 km bo'lsa, poezdning dastlabki tezligini toping.

12.21. Perimetri 28 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning qo'shni tomonlariga tashqaridan yasalgan kvadratlar yuzlarining yig'indisi 116 sm^2 ga teng. To'g'ri to'rtburchakning tomonlarini toping.

12.22. Yuzi 120 sm^2, diagonali esa 17 sm bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning tomonlarini toping.

12.23. To'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasi 41 sm, yuzi 180 sm^2. Katetlarini toping.

12.24. To'g'ri burchakli uchburchakning perimetri 48 sm, yuzi 96 sm^2. Uchburchakning tomonlarini toping.

12.25. Ikki musbat sonning o'rta arifmetigi 20, o'rta geometrigi esa 12. Shu sonlarni toping.

12.26. Ikki shahar orasidagi masofa 480 km; shu masofani yo'lovchi poezdi yuk poezdiga qaraganda 4 soat tez bosadi.

Agar yo'lovchi poezdining tezligi 8 km/soat oshirilsa, yuk poezdining tezligi esa 2 km/soat oshirilsa, passajir poezdi shu masofani yuk poezdiga qaraganda 5 soat tez o'tadi. Har qaysi poezdning tezligini toping.

12.27. Oralaridagi masofa 180 km bo'lgan A va B shaharlardan ikki poezd bir vaqtda bir-biriga qarab yo'lga chiqdi. Ular uchrashgandan keyin A shahridan chiqqan poezd B shaharga 2 soatda yetib boradi, ikkinchisi esa A shaharga 4,5 soatda yetib boradi. Poezdlar tezligini toping.

12.28. Velosipedchilar poygasi uchun 6 km uzunlikdagi masofa belgilandi. Akmal Shavkatdan o'tib ketib, marraga 2 minut oldin keldi. Agar Akmal tezligini 0,1 km/minut kamaytirib, Shavkat tezligini 0,1 km/minutga oshirsa, unda Akmal marraga Shavkatdan 2 minut oldin yetib kelardi. Akmal va Shavkatlarning tezligini toping.

12.29. Ikki ekskavator birga ishlab, biror hajmdagi yer ishlarini 3 soat-u 45 minutda bajaradi. Bir ekskavator alohida ishlab, bu hajmdagi ishni ikkinchisiga qaraganda 4 soat tezroq bajaradi. Shunday hajmdagi yer ishlarini bajarish uchun har bir ekskavatorga alohida qancha vaqt kerak bo'ladi?

12.30. Bir kombaynchi maydondagi bug'doy hosilini ikkinchi kombaynchidan 24 soat tezroq o'rib olishi mumkin. Ikkala kombaynchi birgalikda ishlaganda esa hosilni 35 soatda o'rib olishadi. Har bir kombaynchi alohida ishlab, hosilni o'rib olishi uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?

12.31. Ikkita musbat sonning yig'indisi ularning ayirmasidan 5 marta katta. Agar shu sonlar kvadratlari ayirmasi 180 ga teng bo'lsa, bu sonlarni toping.

12.32. Ikki xonali son o'zining raqamlari kvadratlarining yig'indisidan 11 ta kam va raqamlarining ikkilangan ko'paytmasidan 5 ta ortiq. Shu ikki xonali sonni toping.

12.33. Ikki xonali son raqamlari kvadratlarining yig'indisi 13 ga teng. Agar bu sondan 9 ni ayirsak, shu raqamlar bilan teskari tartibda yozilgan son hosil bo'ladi. Shu sonni toping.

12.34. Baliq og'irligi bo'yicha beshta qismga 14:12:11:9:15 kabi nisbatlarda bo'lingan. Ikkinchi bo'lakning og'irligi 11,2 g ekanligini bilgan holda baliqning butun og'irligini toping.

12.35. Ikkita metalldan ikki xil qotishma tayyorlangan. Birinchi qotishmada metallar 1:2 nisbatda, ikkinchi qotishmada esa 3:2 nisbatda. Metallar nisbati 8:7 bo'ladigan qilib yangi qotishma tayyorlash uchun metallarni qanday nisbatda olish kerak?

12.36. Tovar dastlab 20 % ga, so'ngra yana 15 % ga arzonlashgach, 2380 so'm deb baholandi. Tovarning dastlabki narxini toping.

13-§. CHIZIQLI TENGSIZLIKLAR. KVADRAT TENGSIZLIKLAR

Tengsizliklarni yeching:

13.1. $7x-3(2x+3)>2(x-4)$. **13.2.** $\frac{x+1}{4}<2\frac{1}{2}-\frac{1-2x}{3}$.

13.3. $\frac{6-5x}{5}+\frac{3x-1}{2}>5-x$. **13.4.** $\frac{7x}{4}<0.3(x+7)+2\frac{1}{5}$.

13.5. $-x(x-1)-6>5x-x^2$. **13.6.** $7x-6<x+12$.

13.7. $1-2x\geq 4-5x$. **13.8.** $1-x\geq 2x+3$.

13.9. $\frac{2}{3-x}<0$. **13.10.** $\frac{4}{2+x}\leq 0$.

13.11. $\frac{x^2}{3x+5}<0$. **13.12.** $3(x-2)+x<4x+1$.

13.13. $5(x+1)\geq 2(x-1)+3x+3$. **13.14.** $\frac{5x+3}{2}-1\geq 3x-\frac{x-7}{2}$.

13.15. $2-\frac{x-4}{3}<2x-\frac{7x-4}{3}$. **13.16.** $(x-1)^2+7>(x+4)^2$.

13.17. $(x+1)^2+3x^2<(2x-1)^2+7$.

13.18. $(x+3)(x-2)\geq(x+2)(x-3)$.

13.19. $(x+1)(x-4)+4\geq(x+2)(x-3)-x$.

13.20. $\frac{2}{3x+6}<0$. **13.21.** $\frac{3}{2x-4}>0$. **13.22.** $\frac{-1,7}{0,5x-2}>0$.

Parametr qatnashgan chiziqli tengsizliklarni yeching:

13.23. $(a^2+1)y>3$. **13.24.** $-(b^2+2)z<0$.

13.25. $ax>-3$. **13.26.** $ax<b$.

13.27. $(a-5)x>2$. **13.28.** $ax>b$.

13.29. $(2m+1)x>2n-7$. **13.30.** $a(x-1)>x-2$.

13.31. $(a-1)x<5a+1$. **13.32.** $ax>a(a-1)$.

13.33. $(2b-1)y<4$. **13.34.** $(2a+1)x<3a-2$.

13.35. y ning qanday qiymatlarida:

a) $\frac{7-2y}{6}$ kasrning qiymati $\frac{3y-7}{12}$ kasrning mos qiymatlaridan katta bo'ladi?

b) $\frac{4,5-2y}{5}$ kasrning qiymati $\frac{2-3y}{10}$ kasrning mos qiymatlaridan kichik bo'ladi?

d) $5y-1$ ikki hadning qiymati $\frac{3y-1}{4}$ kasrning mos qiymatidan katta bo'ladi?

e) $\frac{5-2y}{12}$ kasrning qiymati $1-6y$ ikkihadning mos qiymatidan kichik bo'ladi?

Tengsizlikni grafik usulda yeching:

13.36. $x^2-4x+3>0$. **3.37.** $x^2-6x+5\le 0$.

13.38. $-5x^2+3x+2\ge 0$. **13.38.** $-x^2+x>0$.

13.39. $x^2+x+1<0$. **13.40.** $x^2-x+1\ge 0$.

13.41. $x^2-6x+10\le 0$. **13.42.** $-3x^2+2x+1>0$.

13.44. a ning qanday qiymatlarida $(a-1)x^2-(a+1)x+(a+1)>0$ tengsizlik x ning barcha haqiqiy qiymatlari uchun bajariladi?

13.45. a ning qanday qiymatlarida $(2-a)x^2+2(3-2a)x-5a+6\le 0$ tengsizlik x ning hech bir qiymatida bajarilmaydi?

13.46. a ning $(a-3)x^2-2(3a-4)x+7a-6=0$ tenglama yechimga ega bo'ladigan barcha qiymatlarini toping.

Parametrli tengsizliklarni yeching:

13.47. $kx^2-x-1>0$. **13.48.** $kx^2+12x-5<0$.

13.49. $x^2+kx+3<0$. **13.50.** $x^2-2x+k>0$.

13.51. $kx^2+kx-5<0$. **13.52.** $x^2>a$.

13.53. $x^2+(2k+3)x+k^2+4k+3<0$. **13.54.** $kx^2+(2k)x+k+2>0$.

13.55. $(k+2)x^2+2(k+1)x+k-1>0$.

13.56. $\frac{x^2+x-6}{2k+1}>x+6(2k-1)$.

Tengsizlikni yeching:

13.57. $3x^2-7x+4\le 0$. **13.58.** $3x^2-7x+6<0$.

13.59. $3x^2-7x-6<0$. **13.60.** $x^2-3x+5>0$.

13.61. $x^2-14x-15>0$. **13.62.** $2-x-x^2\ge 0$.

14-§. RATSIONAL TENGSIZLIKLAR

Tengsizliklarni yeching:

14.1. $x^2-4x+45>0$. **14.2.** $x^2+2x>6x-15$.

14.3. $x^2-11x+30>0$. **14.4.** $3x^2-4x+3>0$.

14.5. $3x^2-5x-2>0$. **14.6.** $5x^2-7x+2<0$.

14.7. $3x^2-7x-6<0$. **14.8.** $3x^2-2x+5>0$.

14.9. $(x-2)(x-5)(x-12)>0$. **14.10.** $(x+7)(x+1)(x-4)<0$.

14.11. $x(x+1)(x+5)(x-8)>0$. **14.12.** $(x+48)(x-37)(x-42)>0$.

14.13. $(x+0,7)(x-2,8)(x-9,2)<0$. **14.14.** $(x^2-16)(x+17)>0$.

14.15. $\left(x-\frac{2}{3}\right)(x^2-121)<0$. **14.16.** $x^3-25x<0$.

14.17. $x^3-0,001>0$. **14.18.** $(x^2-9)(x^2-1)>0$.

14.19. $(x^2-1,5x)(x^2-36)<0$. **14.20.** $(x^2+17)(x-6)(x+2)<0$.

14.21. $x(2x^2+1)(x-4)>0$. **14.22.** $(x-1)^2(x-24)<0$.

14.23. $(x+7)(x-4)^2(x-21)>0$. **14.24.** $\frac{x-8}{x+4}>0$.

14.25. $\frac{x+16}{x-11}<0$. **14.26.** $\frac{x+1}{3-x}\ge 0$.

14.27 $\frac{6-x}{x-4}\le 0$. **14.28.** $(x-1)^2(x-2)^3(x-3)^4(x-4)^5>0$.

14.29. $(x-1)^2(x+1)^3(x-2)^4(x-4)^5\ge 0$.

14.30. $(x+2)^2(x-1)^3(x-2)^7\le 0$. **14.31.** $x^3(x+1)^2(x-4)^3\ge 0$.

14.32. $(x-1)^4(x+1)^2<0$. **14.33.** $(x-0,5)(x+0,5)^2(x-2)>0$.

14.34. $x^2(x^2-1)(x+1)\le 0$.

14.35. $\frac{(x-1)(x+2)^4(x-3)^2}{(x-4)^3}>0$. **14.36.** $\frac{(x-1)^4(x-2)^3(x+5)}{(x-7)^2}\ge 0$.

14.37. $\frac{(x-2)^4(x+2)^3(x-1)}{(x-3)^2}\le 0$. **14.38.** $\frac{(x-2)(x-3)^4(x-4)}{x+2}<0$.

14.39. $\frac{(1-x)(x-2)}{12-3x}>0$. **14.40.** $(11-x)^3(x-1,5)\ge 0$.

14.41. $(2-3x)(4x+5)\le 0$. **14.42.** $(2-3x)(4x+5)(3-4x)\ge 0$.

14.43. $(3-4x)(5-6x)(x-7)\le 0$. **14.44.** $(3-4x)^2(4-7x)^3(x+5)>0$.

14.45. $(13-9x)^3(11-8x)^4(5-x)\le 0$. **14.46.** $\frac{(3x-5)(7-4x)^3}{4x+7}>0$.

14.47. $\frac{(4x-7)(3-5x)^2}{(7x-4)^3}<0$. **14.48.** $\frac{(4,5x-9)^2}{7x-21}<0$.

14.49. $\frac{0,5}{x-x^2-1}<0$. **14.50.** $\frac{x^2-5x+6}{x^2+x+1}<0$.

14.51. $\frac{x^2+2x-3}{x^2+1}<0$.

